

XXI ASR IJTIMOIY TADQIQOTLARIDA MILLIYLIK VA IDENTIKTLIKNING DOLZABLASHUVI

Maxmudov L.Y.

Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv
va texnologiyalar universiteti

Ijtimoiy-gumanitar fanlar va tarix kafedrasи katta o'qituvchisi.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada identifikatsiya va milliy identifikatsiya jarayonlarini ijtimoiy taraqqiyotdagi o'rni, bu kabi muammolarning zamonaviy dunyodagi ro'li hamda globallashuv jarayonlaridagi moslashuvi to'grisida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Identifikatsiya ijtimoiy taraqqiyot o'zbek xalqi imperialistik o'yinlar, tafakkur tarzi.

ABSTRACT

This article discusses the role of identification and national identification processes in social development, the role of such problems in the modern world, and their adaptation in the processes of globalization.

Key words: Identification, social development, Uzbek people, imperialist games, way of thinking.

АННОТАЦИЯ

В статье рассматривается роль процессов идентификации и национальной идентификации в общественном развитии, роль таких проблем в современном мире и их адаптация в процессах глобализации.

Ключевые слова: Идентификация, социальное развитие, узбекский народ, империалистические игры, образ мышления.

KIRISH

XXI asr bosqlarida butun dunyo bo'y lab rivojlangan milliy integratsiyalashuv va milliy o'zlikni anglash kabi jarayonlar har bir xalqning kelib chiqish tarixi, madaniyati va qadriyatlarini qaytadan tadqiq qilinishiga turtki bo'ldi. Xususan, bunday vaziyat hozirgi sobiq ittifoq davlatlari xalqlarining ham ijtimoiy-siyosiy hayotida muhim rol o'ynab, ushbu davlatlar xalqlarining milliy qiziqishlarini ifodalagan siyosat sifatida yaqqol namoyon bo'la boshladi. Shundan kelib chiqqan holda mustaqillik yillarida o'zbek xalqining davlatchilik va xalq sifatida shakllanish tarixini tadqiq etish, bir tomonidan yosh mustaqil davlatimizning kelajagi uchun zaruriyat sifatida, ikkinchi tomondan esa davr talabi bo'lib namoyon bo'la boshladi. Shuningdek, o'zbek xalqining shakllanish tarixi mustaqillik yillarida tadqiq qilinishi

dolzarb bo'lgan masalalardan biri sifatida olimlarimiz tomonidan yangicha yondoshuvlar va qarashlarni shakllantirdi. Bu masalaning e'tiborli jihat shundan iboratki, o'zbek xalqi tarixini tadqiq etish ancha oldin boshlangan bo'lib, bu masalaga ma'lum bir davrning iqtisodiy-siyosiy manfaatlari doirasida, boshqa bir tarixiy davrda esa ob'ektiv zarurat sifatida yondoshilgan. Bu esa o'z navbatida o'zbek xalqining shakllanish jarayoni davomida o'ziga xos bo'lgan qonuniyatlarni turli ko'rinishda oydinlashtira bordi.

Ma'lumki mustaqillikka erishganimizdan so'ng, o'zbek davlatchiligi va xalqimizning milliy tarixini o'rganish, uni tadqiq etish, tarixiy xotirani tiklash nafaqat milliy taraqqiyotimiz uchun zaruriyat balki, davr talabi hamdir. Ayni paytda millatlarning o'zligini anglash, milliy ma'naviy me'roslarini, milliy urf-odat an'ana va qadriyatlarini qayta tiklashga bo'lgan intilishlari kuchayib bormoqda. Ko'pgina mamlakatlar iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy-ma'rifiy sohalarda katta yutuqlarga erishdilar. Buning natijasi o'laroq, ularda jahon taraqqiyotida yetakchilik qilishga bo'lgan intilish ham kuchayib bormoqda¹.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Har bir davlat mustaqil ekan, birinchi navbatda o'zligini anglashga, milliy qadriyatlar hamda aylanalarini e'ezozlashga e'tibor qaratadi. Ammo bugungi kunda dunyodagi ko'plab mamlakatlar olib borayotgan milliy siyosat fuqarolik jamiyatini barpo etishga qaratilmoqda. Bunday jamiyat olimlar fikricha, xalqlarning milliyligiga emas, balki ularning umumiyligiga ya'ni, umummanfaatlarga asoslanadi. Shunday bir vaziyatda yuqorida aytib o'tilgan masalalar millat va davlat o'rtasidagi ijtimoiy-siyosiy qarashlarda nomutonosiblikni yuzaga keltirmoqda. Shuningdek bugungi kunda xalqlar va millatlar o'zlarini faqatgina davlat va uning belgilari bilangina emas, balki madaniyat, san'at, millatning tipologik belgilari hamda boshqa bir qancha xususiyatlar bilan aynanlashtirmoqda. Qolaversa, uchinchi ming yillikka qadam qo'ygan insoniyatning kuchli davlatlar siyosatidagi yangicha imperialistik o'yinlar, dunyonи bo'lib olishning kosmopolitizm va demokratiya niqobi ostidagi g'oyalarida milliylikning ildiziga bolta urish va uni inkor etuvchi nazariyalar ko'plab yaratilayotgan ekan, milliy identifikatsiya jarayoni tushunchasini nazariy va amaliy jihatdan aniqlab olish biz oldimizga qo'yyayotgan kontseptsianing keyingi rivojiga asos bo'lib xizmat qiladi.

Milliylik masalasining mohiyatini to'la tushunish, millat mohiyatini tushunishni taqozo etadi. Bugungi kunda millat tushunchasini tadqiqotchilar turlicha talqin qilib, turli xil kontseptsiya va yondashuvlardan kelib chiqqan holda tahlil etmoqda. Hozirgi

¹ Choriyev A. Inson falsafasi. 103-106 betlar.

paytdagi zamонавиј тадқиқот натијаларига ко’ра, міллат бу - ма’лум руhiy birlikka ega, о’з-o’zini anglagan guruhning tarixiy shakllangan ijtimoiy-iqtisodiy va ma’naviy birligi bo’lib, ushbu guruh dunyoni o’ziga xos qabul qilish asosida milliy qadriyatlar yaratgan, ularni o’ziga xos shaklda ifodalagan kishilar birligi sifatida namoyon bo’ladi. Bu milliy qadriyatlar ijtimoiy hayotning serqirraligini, sermazmunligini ifodalaydi va insoniyatning boyligi sifatida rivojlanishni talab etadi.

Milliylik masalalariga qiziqish va milliy identifikatsiyani jarayon sifatida rivojlanishi insoniyatning bevosita va bilvosita intellektual salohiyatining o’sishi hamda yutuqlarga erishishi bilan uzviy bog’liqdir. Tadqiqotchilarning nuqtai nazarlariga ko’ra, “Milliylik” masalasi millatlararo tizimda ham, davlat ichidagi milliy munosabatlarda ham namoyon bo’lishi mumkin. Har ikkala ko’rinishda ham ijtimoiy taraqqiyot jarayonida vujudga keladigan iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, madaniy, mafkuraviy va boshqa sohalardagi barcha murakkab masalalarni hal qilish ko’zda tutiladi. Tadqiqotchilarning bu boradagi fikrlariga ko’ra, milliy davlatni qaror topishi milliy masalaning dastlabki hal qilinishi bilan bir qatorda, ichki (polietnik davlatlarda) va tashqi munosabatlarda yangi milliy muammolarni keltirib chiqaradi. Masalan O’rta asrlarda va yangi davrda milliy masala millatlarni milliy zulmdan qutqarish masalasi bilan bog’liq bo’lgan, keyinchalik esa bu milliy mustaqillikka erishish muammosiga aylandi. Bugungi kunda millat va milliylik tushunchasiga tadqiqotchilar turlicha yondoshmoqda, turlicha ta’rif berishmoqda. Bu borada quyidagi umumiy ta’riflarni keltirib o’tmoqchimiz: Birinchidan, millatni katta ijtimoiy guruh deb e’tirof etish mumkin. Ikkinchidan, shu guruhning ichida uni birlashtirib turadigan ma’lum bir aloqalar siyosiy, madaniy, tarixiy, diniy, til va boshqalardan iboratdir. Ularning harakatchan, beqaror va o’zgarib turadigan ierarxiyasini hisobga olgan holda, mavjudligini ko’rsatish mumkin. Uchinchidan, millatning ajratilishi doim ideologlar tomonidan guruh ongiga singdiriladigan “umumiy taqdir” mifi bilan bog’liqdir, to’rtinchidan, inson o’zini u yoki bu millatga qo’shish uchun o’zining harakatlarini ma’lum bir siyosiy va g’oyaviy kontekstga mansub deb bilishi zarur. Shundan kelib chiqqan holda biz bugungi kunda butun dunyodagi rivojlangan davlatlarni olib qaraydigan bo’lsak, o’sha davlatlarda yashaydigan millatlar asosan o’z aqli, tafakkuri, bilimi, dunyoqarashi, mehnatkashligi bilan katta yutuqlarga erishishgan. Bu xoh sportda, xoh iqtisodiyotda, xoh huquqda xoh siyosatda va boshqalarda bo’lsin.

Ma’lumki, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy-ma’naviy hayotning taraqqiyot yo’llari, milliy va umuminsoniy taraqqiyot tamaddunlarining uyg’un holda rivojlanishi, qolaversa, ma’lum millat yoki mamlakatning iqtisodiy-ma’naviy jihatdan yuksalib, dunyoga yuz tutish jarayoni ko’p hollarda millatning ma’naviy qiyofasi, tafakkur

tarzi, umuminsoniy qadriyatlarni o'zlashtirishdagi tolerantlik xususiyatlari bilan bog'liqdir. Aynan shuning uchun ham o'zbek xalqi tarixida shakllangan boy ma'naviy meros, bugungi kunda davlatimizning mustahkam poydevori sifatida hozirda rivojlanib borayotgan globallashuv, milliy integratsiyalashuv va milliy identifikatsiya kabi jarayonlarga o'ziga xos bo'lgan immunitet sifatida namoyon bo'lmoqda. Bunga misol tariqasida mustaqillikka erishgan sobiq ittifoq davlatlarining deyarli barchasida mustaqillik yillari va undan keyingi davrlarda kechgan milliy o'zlikni anglash orqali milliy mustaqillikni mustahkamlashga bo'lgan intilish va qiziqishlarini ifodalagan siyosatni keltirish mumkin. Bunday jarayonlarda millatning faqat uzoq o'tmishga ega bo'lishi emas balki, boy ma'naviy meros, unutib bo'lmas milliy qadriyatlar va madaniyatga ham ega bo'lishi muhim ahamiyat kasb etib, uning keyingi kelajagi uchun xizmat qila boshlaydi.

O'zbek identifikatsiyasi jarayoni bu - o'zbek halqining kelib chiqishi, tili va madaniyati hamda qadriyatlariiga e'tiboran umuminsoniy taraqqiyotga integratsiyalashishdir. Shuningdek, bu jarayonda millat tarixida o'tgan buyuk shaxslar va ular erishgan yutuqlar, kashfiyotlar, shu millatga tegishli bo'lgan barcha jihatlar muhim rol o'ynaydi.²

Bugungi yuksak taraqqiyot davrida hech bir mamlakat umumiyligi integratsiyalashuv jarayonidan chetda tura olmaydi. Har bir davlat boshqa davlatlar bilan hamkorlikda rivojlanib boradi. Zero, xalqaro munosabatlarsiz taraqqiyotga erishib bo'lmaydi. Chunki, ko'p asrlar mobaynida jahon mamlakatlari dunyo miqyosida bir-birini boyitib kelgan. Tadqiqotchilarning etnos, elat, xalq, millat va milliylik borasidagi nuqtai nazarlariga ko'ra bugungi kunda dunyodagi hech bir xalq boshqa xalqlar bilan uyg'unlashmagan holda mavjud emas. Aksiomaga aylanib borayotgan ushbu nazariyani hozirda etnologlar, tarixchilar, antropolog va sotsioglarning ilmiy ishlarida uchratish mumkin. Shu ma'noda integratsiyalashuv ya'ni, uyg'unlashuvning yuzaga kelishining sabablari haqida to'xtalib o'tmoqchimiz. Bugungi kunda ijtimoiy hayotning deyarli barcha sohalarida integratsiyalashuv jarayon sifatida kechmoqda. Shu o'rinda hozirda integratsiyalashuvni quyidagi turlarini keltirib o'tish mumkin: iqtisodiy integratsiya, madaniy integratsiya, milliy integratsiya va boshqalar. Masalan iqtisodiy integratsiyani oladigan bo'lsak, bu XX asr oxiri XXI asr boshlaridan boshlab jadal sur'atlarda o'sib kelmoqda. Bunga misol qilib, dunyodagi yetakchi industrial davlatlarning o'z korxona va kompaniyalarini rivojlanmagan yoki rivojlanib kelayotgan (industriya rivojlanmagan mamlakatlar) davlatlarda ham faoliyatini yo'lga qo'yishini hamda, shu kabi davlatlar fuqarolaridan

² Madaeva Sh.O. Milliy mentalitet va demokratik tafakkur. —Toshkent. 2009

arzon ishchi kuchi sifatida foydalayotganligini keltirish mumkin. Iqtisodiy integratsiya tarixiy ildizlarga ham ega ammo, hozirigidagidek emas. Madaniy integratsiyani oladigan bo'lsak, bu xalqlar va millatlar o'rtasida har doim mavjud bo'lgan fenomenlardan biri hisoblanadi. Chunki madaniy uyg'unlashuvni bugun har bir xalq, millatda kuzatish mumkin.

Madaniy uyg'unlashuv bu - ma'lum bir davr mobaynida bir etnos, elat yoki xalqqa tegishli bo'lgan barcha jabhalardagi madaniyatning ma'lum bir sabablar yoki omillarga ko'ra boshqa bir elat, xalqning madaniyati bilan aralashuvi, qorishishidir. Bu jarayon natijasida ikki va undan ortiq elat, xalqlarga tegishli bo'lgan madaniyatlar bu – urf-odatlar, an'nalar, qadriyatlar, rasm-rusmlar udumlar va boshqalar bo'lsin, uyg'unlashuv yuzaga keladi.

Milliy integratsiya bu – xalqlar va millatlar o'rtasida etnik, antropologik, madaniy, ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy hamda milliylik belgilari jihatidan uyg'unlashuvdir. Milliy integratsiya asosan XX asr oxiri XXI asr boshlarida kuchaya bordi. Bunga sabab dunyo bo'y lab mustamlakachilikning yemirilishi va mustaqil davlatlarning ko'payishi natijasida xalqlar hamda millatlarning milliylikka qiziqishi, intilishidir. Shundan kelib chiqqan holda milliy integratsiyani jarayon sifatida, ko'proq bir tilli xalqlar oilasida, bir mintaqada yashaydigan xalqlarda qolaversa, ko'pmillatli mamlakatlarda ham kuzatish mumkin. Milliy integratsiyalashuv jarayon sifatida tarixiy ildizlarga ham ega bo'lishi mumkin. Masalan Markaziy Osiyo xalqlari. Tadqiqochilarining nuqtai nazarlariga ko'ra, tarixda millat va markazlashgan davlatlar o'rtasida ma'lum bir aloqa kuzatiladi. Aksariyat hollarda etnik va davlat chegaralari bir-biriga mos kelishi mumkin. Bitta xalq turli davlatlarning tarkibida bo'lib qoladi. Bundan tashqari aholi migratsiyasi sodir bo'ladi. Masalan Amerika qit'asida ingliz tili 15 millat uchun, ispan tili 13 millat uchun, Gollandiya va Portugaliya tillari – bittadan etnos uchun ona tili hisoblanadi.

G'arb tadqiqotchilaridan biri E.Smit milliy integratsiyalashuvni tarixiy, qadimiy yoki azaliyigini e'tirof etgan holda shunday fikr bildiradi: "Tarixda asosan bir millatli tarkibli davlatlar – istisnodir, ko'p millatlilari esa odatiyidir". Shunga qaramay zamonaviy olamda davlatlar aksariyat hollarda o'zining tili, milliy ramzlari bo'yicha farqli bo'lib chiqmoqda.

Xalqlar o'rtasidagi integratsiyalashuv albatta azal-azaldan mavjud bo'lgan jarayon. Ammo bugungi kunda bu integratsiyalashuvni mustaqillikka erishgan ko'plab davlatlar xalqlarining milliy siyosatida namoyon bo'lmasdan, balki bu tarixiy-madaniy tajriba sifatida millatning ichki olamida saqlanib qolmoqda. Tarixiy-madaniy tajriba xalq hayotida qanday real voqelik bo'lsa, uning innovatsiya va integratsiya orqali rivojlanib kelgani ham xalq hayotida shunday ob'ektiv voqe'likdir .

Endilikda ko‘plab mustaqillikka erishgan va rivojlangan mamlakatlar xalqlari o‘z xalqining tipologik belgilarini faqatgina o‘zlariga tegishli deb hisoblamoqda ya’ni, madaniyat, qadriyat va boshqalarni ham. Bu bilan ko‘plab xalq va millatlar o‘zining milliy tarixini, o‘tmishini, davlatchilik an’nalarini, uzoq o‘tmish hamda faqatgina o‘zigagina tegishli ekanligini milliy siyosat orqali ifodalamoqdalar. Bu o‘z navbatida milliy integratsiyalashuvni jarayon sifatida rivojlanishiga muhim omil sifatida xizmat qilmoqda.

XX asrning oxiri va XXI asrning boshi shu bilan xarakterlanadiki, bir tomondan insoniyat hamda mana shu jamiyat a’zolarini birlashtiruvchi milliy davlatlar orasida integratsiyalashuv jarayonlari shiddat bilan kechayotgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan xalqlarning o‘zligini anglab, etnotarixiy qadriyat va milliy madaniyatlarini targ‘ib etish hislatlari ham ustun darajada nomoyon bo‘la boshladi. Bugungi davrga xos bu ikki xususiyat o‘rtasida sezilarli farqiyatlar mavjud bo‘lmadan, aks holda bir birini to‘ldirib turuvchi fenomen sifatida etnosiyosiy hayotda ijobiy mohiyat kasb etayotganligi quvonarli holdir. Bundan tashqari integratsiyalashuv jarayonlari milliy o‘zlikni anglashga yoki milliy madaniyatni targ‘ib etishga to‘siq bo‘lmaganidek, etnik o‘zlikni anglab milliy urf odat va an’analarni tarannum etish va targ‘ib etish ham o‘zaro umuminsoniy yaxlitlikni ta’minlashda muhim rolб o‘ynaydi.

Tarixdan ma'lumki, Markaziy Osiyo madaniy va sivilizatsion rivojiga mintaqani arablar zabit etgan va o‘rta asr davrlarida islom xalifaligiga qo‘shilganligi katta ta’sir qilgan. Rossiya imperiyasi tomonidan Markaziy Osyoning zab etilishi mintaqaning jahonda tutgan o‘rnining tubdan o‘zgarishi olib keldi. Markaziy Osiyo Rossiya manfaatlariga bo‘ysundirildi va uning tashqi aloqalari Rossiyaning nazoratida bo‘lib qoldi. Bu esa mintaqaning xalqaro maydonda mustamlaka bo‘lib shakllanishiga olib keldi.

Mustamkachilik davrida Sho‘rolar va Komfirqaning milliy siyosatidagi bosh maqsadi rus bo‘lmagan boshqa millatlarni millat sifatida yo‘q qilib yuborish – assimilatsiyalashdan iborat bo‘ldi. Bu jarayon, xususan KPSS XXII s’ezdining “Kommunizm qurish dasturi” qabul qilingach, bevosita kun tartibiga qo‘yildi. SSSRda “sotsializm to‘la va uzil kesil g‘alaba” qilgach, SSSR xalqining yangi tarixiy birligi paydo bo‘ldi. Bu birlik: “Yagona vatan – SSSR”; “Yagona til – rus tili”; “Yagona maqsad – kommunizm”; “yagona mafkura – marksizm-leninizm”ga asoslandi, degan g‘oyalardan kelib chiqib, “yagona xalq – sovet xalqi”; “yagona pasport – sovet pasporti”ni ilgari surishga borib yetildi. Sho‘rolar va Komfirqa rahbarlari o‘z maqsadlarini hech kimdan yashirmadilar: “Bizning pirovard maqsadimiz ravshan degan edi KPSS MKning Bosh kotibi Yu.V. Andropov – bu

maqsad V.I. Lenin so‘zlari bilan aytganda, millatlarni bir-biri bilan yaqinlashtirishgina emas, balki qo‘shish hamdir.”

Bu siyosat aslida internatsionalizm degan g‘oya asosida targ‘ib qilinardi. Biroq aslini olganda, internatsionalizmni barcha millatlarning tengligini emas, balki hukmron millat atrofida jipslashish va o‘z milliy qiyofasidan voz kechishini talab qilar edi. Uzog‘i bilan bir asrga yaqin vaqtida bu g‘oya o‘zining ta’sirini birmuncha namoyish etdi. Yagona mamlakatga birlashgan millatlar avvalo o‘zlarining vijdon va iymon erkinliklaridan, azaliy urf-odatlari va an'analaridan judo bo‘la boshladilar. Ya’ni e’tiqod erkinligi ta’qiqlandi, azaliy urf-odatlар milliy mahdudlik talqini sifatida unutila boshlandi. Ayniqsa millatlarning aralashib ketishi zo‘r berib targ‘ib etila boshlandi.

Markaziy Osiyo mintaqasida milliy integratsiyalashuv jarayonlari XIX-XX asrlardan boshlab ko‘zga tashlana boshlagan bo‘lsa-da, bu jarayon sifatida o‘zining tarixiy ildizlariga ega edi. Bunga asosiy sabablardan biri qadim- qadimdan mintaqada turli etnos, elat va etnik birliklarning yashab kelganligi hamda, ular o‘rtasidagi etnomadaniy, diniy, qadriyatlar jihatidan uyg‘unlashuv edi. Shuningdek Markaziy Osiyoda xalqlar o‘rtasidagi milliy integratsiyalashuvni yuzaga keltirgan omillardan biri mintaqa hududida qadimdan mavjud bo‘lgan sivilizatsiya va ta’limotlardir. Eramizdan avvalgi birinchi ming yillikda tugal holda shakllanib, o‘zida Markaziy Osiyo xalqlarining to‘rt ming yillik tarixini ifodalagan “Avesto” mohiyatan demokratik g‘oyalarni mujassamlashtirgan falsafiy tizim va ta’limot edi. Zardushtiylik shuningdek ibridoiy davrda mavjud bo‘lgan tabiat kuchlarini ilohiyashtiruvchi e’tiqodlarga nisbatan progressiv, monoteistik bo‘lib, ma'lum vaqt turli elat va xalqlarni birlashtirgan. U behuda qon to‘kuvchi qurbanliklar, harbiy to‘qnashuvlar, bosqinchilik hujumlarini qoralab, o‘troq osoyishta hayot kechirishga mehnatga, chorvachilik hamda dechilik bilan shug‘ullanishga da vat etadi. Shuni alohida ta‘kidlash kerakki, Zardushtiylik mafkura jihatidan g‘oyat kuchli ta’limot bo‘lib, u insonning ma’naviy-iqtisodiy va madaniy hayotini mutanosib holda progressiv rivojlantirishda katta imkoniyatlarga ega edi .

Shundan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, zardushtiylik Markaziy Osiyo xalqlarini ma'lum bir davrda bitta g‘oya atrofida birlashtirgan va milliy taraqqiyotda muhim ahamiyat kasb etgan. Bu esa mintaqa xalqlari o‘rtasida madaniy jihatdan integratsiyalashuvni yuzaga keltirgan. Bundan tashqari, “Avesto”da Vatanni sevish, insonparvar bo‘lmoq, shirinsuxan, mehribon, halimlik qilmoq, barcha insonlarga g‘amxo‘rlik qilmoq xususida pand-nasihat qilinadi: “Illohi qonunga bo‘ysunadigan, yaxshi kishi, yaqin odamiga mehribon bo‘lish, muhtojlik va xavf-xatar ostida qolganda ko‘maklashishga shaylik, kishilar baxt saodati uchun yovuzlikka qarshi faol

kurashga tayyor bo‘lish, hamma bilan ahil totuvlikda, birodarlikda yashashga intilishda namoyon bo‘ladi. Inson fikran ham, xayolan ham hasadgo‘y bo‘lmasligi lozim. Yaxshi niyatli kishi hech qachon darg‘azab bo‘lmaydi va jaholatga berilmaydi, chunki johillik holatida u yaxshi niyatini yo‘qotadi, burch vaadolatni unutib, nojo‘ya harakatlar qiladi”³.

Markaziy Osiyo davlatlarining mustaqillika erishgandan keyin davrlardan boshlab kuzatilayotgan milliy integratsiyalashuv jarayonini kelib chiqishiga asosiy sabab mintaqqa xalqlarining bir-biridan madaniyat, qadriyatlar, urf-odatlar, til, va boshqalarga ko‘ra farqlanishidir. Bu uyg‘unlashuv ham o‘z o‘rnida ikki tilda so‘zlashuvchi xalqlar oilasida ya’ni, turk va forsiy tilda so‘zlashuvchi xalqlarda kechgan. Shundan kelib chiqqan holda mintaqqa xalqlari o‘rtasidagi garchi mintaqqa xalqlariga bir butun jarayon sifatida Markaziy Osiyo xalqlari bir butun turkiy xalq sifatida uzoq vaqt davomida bir hududda hamjihatlikda yashab kelgan. Mintaqada kechgan tarixiy jarayonlar xususan ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning mintaqqa xalqlariga ta’sir o‘tkazishi vaqt-i-vaqti bilan ularning milliy qiziqishlarini yuzaga keltirib turgan. Bu asosan mintaqqa hududida markazlashgan davlatlar va kuchli siyosiy kuchlar shakllangan paytda yuzaga kelgan. Bunga misol sifatida birgina Amir Temurning markazlashgan davlatini oladigan bo‘lsak, ushbu davlatning mintaqqa xalqlari hayoti va ularning har tomonlama taraqqiy etishida qanchalik ahamiyat kasb etganligini ko‘ramiz. Milliy integratsiyalashuv jarayon sifatida kechishi uchun dastlabki omil bu – mustaqillikdir. Mustaqillik har bir xalqning kelib chiqishini, o‘zligini, tarixiy ildizlari hamda u bilan bog‘liq bo‘lgan ta’limotlar, afsonalar, afsonaviy qahramonlar va boshqalarni anglashga imkon yaratadi. Amir Temurning markazlashgan davlati ham mintaqqa xalqlariga ana shunday imkoniyatlarni yaratgan edi. Bu davrda xalqlar o‘rtasida integratsiyalashuv jarayoniga faqatgina bir omil to‘sinqilik qilib kelgan. Bu ham bo‘lsa islom dini va uning qonun-qoidalariga asoslangan mafkura edi. Chunki Amir Temur davrida mintaqada asosan islom dini keng tarqalgan edi. Bu esa o‘z navbatida, xalqlar o‘rtasida diniy uyg‘unlashuvni ma'lum ma'noda kamaytirib, markazlashgan davlatdagi turli elat va xalqlarni yagona mafkura atrofida birlashtiradi. Shunday bo‘lsa-da, bu davrda demokratik tafakkurga keng yo‘l ochilgan bo‘lib, Amir Temur o‘zi barpo qilgan davlatni boshqarishda umuminsoniy manfaatlar bilan birgaadolat va demokratik printsiplarga tayanganligini tarixiy manbalar tasdiqlaydi.

Markaziy Osiyo mintaqasida ro‘y bergen mustaqillik davrlarida xalqlarni o‘zligini anglashga bo‘lgan intilishlari kuchaygan va bu jarayon sifatida namoyon bo‘la boshlagan. Lekin bunday davrlar mintaqqa tarixida juda kam sodir bo‘lgan.

³ Madaeva Sh.O. Milliy mentalitet va demokratik tafakkur. —Toshkent. 2009

Chunki Markaziy Osiyo xalqlari uzoq vaqt davomida u yoki bu mamlakatga qaram bo‘lib, siyosiy kuchlarning o‘yini maydoniga aylanib kelgan edi. Bunday holat Sovet ittifoqi davrida saqlanib qolib, uning oqibati 1924 yili mintaqada milliy-hududiy bo‘linish o‘tkazilgan va katta Sovet baynalminal oilasini tashkil etuvchi davlatlarning tashkil bo‘lishiga olib keldi. Bu Markaziy Osiyodagi etnogenetik jarayonlarga jiddiy ta’sir o‘tkazdi. Mintaqqa uzoq vaqt davomida iqtisodiy jihatdan Rossiya imperiyasining keyinchalik Sovet ittifoqining xom-ashyo beruvchi qo‘srimcha muruvvati sifatida xizmat qilib keldi. Madaniy-g‘oyaviy sohada yagona baynalminal, rus tilida so‘zlashuvchi “Sovet xalqi” umumiyligini shakllanishi sovet ittifoqining asosiy maqsadlaridan biri edi. Shuning uchun ijtimoiy hayotning asosiy sohalaridan boshqa tillarni chekintirib, butun davlat va ijtimoiy hayotda asosiy til sifatida rus tilini ishlatishtga qaratilgan lisoniy siyosat olib borilgan edi. Ammo shunday bo‘lsa-da Markaziy Osiyo xalqlari o‘z milliy tillarini saqlab qola oldilar va 1989 yili “Milliy respublikalarda davlat tili” sifatida milliy tilni e’tirof etish masalalari ko‘tarila boshlandi.

Sivilizatsion nuqtai-nazardan Markaziy Osiyo hozirgi O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston, hududiga nisbatan kengroq mintaqani o‘ziga qamrab olar edi. Bu mintaqaning turkiy xalqlari etnik, tilga oid diniy, madaniy sivilizatsion tarixiy jihatlardan sharqiy Turkiston, shimoliy Eron, Ozarboyjon, Turkiya, Tatariston, Boshqirdiston, shimoliy-g‘arbiy Afg‘oniston, Kavkaz va Sibir xalqlari bilan yaqin aloqalari bor. Bu xalqlar turk sivilizatsiyasining asosiy qismini tashkil etadilar. Markaziy Osiyoning Eroniy xalqlari bilan Eron, shimoliy-sharqiy va g‘arbiy Afg‘oniston hamda shimoliy-g‘arbiy Pokistonning ko‘p xalqlari yuqorida aytilgan jihatlarda yaqin aloqada bo‘lib kelganlar. Bu xalqlar Eroniy sivilizatsiyasining asosiy qismini tashkil etadi. Markaziy Osiyo mintaqasida ana shu ikki sivilizatsiyaning uyg‘unlashuvi bugungi kunda mintaqaga xalqlarida kuzatilayotgan milliy integratsiyalashuv va milliy identifikatsiyaning murakkab jarayon sifatida kechishi bilan namoyon bo‘lmoqda. Insoniyat tarixining ko‘p davrlari mobaynida turk va eron sivilizatsiyalari geosiyosiy, harbiy, ijtimoiy-iqtisodiy, til-kommunikativ, ilmiy-informatsion hamda demografik ahamiyati va potentsiali jihatidan jahon miqyosida yetakchi bo‘lib kelishgan.

Markaziy Osiyo xalqlarida milliy integratsiyalashuv jarayoni asosan ularning milliy mustaqillikka erishgan davrlarida yaqqol namoyon bo‘la boshladi. Bu jarayon ham o‘z navbatida ikki asosiy omillar bilan belgilanadi. Bu ijtimoiy-siyosiy va madaniy-ma'rifiy omillardir. Ijtimoiy-siyosiy jihatdan mintaqaga xalqlari o‘rtasidagi integratsiyalashish quyidagi omillarda kuzatiladi:

- davlatchilik asoslarini qurishda;

- milliy va diniy qadriyatlarning bir-biriga yaqinligi;
- urf-odatlar borasida an'anaviy hayot tarziga asoslanish;
- milliy o'zlikni anglash borasida;
- milliy mustaqillik siyosatida;
- ilm-fan taraqqiyotida;

Islom dini bilan bog'liq madaniy-ma'rifiy omillar tarbiya, ilm olish, Vatan, ota-on, farzand oldidagi burch va boshqalar bilan belgilanadi. Shuning uchun ham Markaziy Osiyo madaniyati va ma'rifati boshqa xalqlar madaniyatidan ajralib turadi. Bir tomondan, mintaqaga islom madaniyati kirib kelmasidan avval bu ulkan hududda turli dinlar va madaniyatlar mavjud edi. Ikkinchisi tomondan esa, mintaqaga xalqlari o'rtasidagi integratsiyalashuv xalqlarning o'tmishidagi ijtimoiy-csiyosiy jarayonlarga borib taqaladi. Milliy integratsiyalashuvda madaniy-ma'rifiy omillar tarixiy ildizlarga ega bo'lsada, buni asosan mintaqani Chor Rossiyasi zabit etgandan keyingi davrlarda rivojlandi deyishga ma'lum bir asoslar bor. Chunki XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi Turkistondagi siyosiy vaziyat millatning ma'naviy qiyofasini takomillashtirish, uning kelgusidagi har qanday irqiy zulmdan xoli bo'la oladigan mental dasturga ega bo'lishi uchun mafkuraviy sohada ma'rifatparvarlik idealogiyasiga suyanishni taqazo qildi. Bu idealogiyani targ'ib qilgan jadidlar o'zlikni anglash ma'rifatdan boshlanishini tushunib yetdilar. Jadidlar ta'limotidagi ma'rifatparvarlik g'oyalari Furqat, Muqimiyy, Avaz O'tar kabi ma'rifatparvar shoirlar tashviq qilgan rus ma'rifati va ma'naviyatiga intilish emas, aksincha rus istilosini va irqiy zulmdan xolos bo'lish uchun egallanishi kerak bo'lgan ma'rifat hamda ma'naviyat edi.

Markaziy Osiyo idealogik hayotida birinchi bo'lib jiddiy tahlil qilingan ta'limot bu – jadidchilik edi. XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkistonda ijtimoiy hayotning iqtisodiy, siyosiy, madaniy sohalarda shunday bir kompleks tarzdagi o'zgarishlar vujudga keldiki, mafkuraviy kurash maydoniga yuzlab ziyoli ma'rifatparvarlarning kirib kelishiga tarixiy talab va zarurat hosil bo'ldi. Istilo siyosati oqibatida Turkistonliklarni milliy ezish va ijtimoiy hayotning oyoq osti qilinishiga olib keldi hamda siyosatga qarama-qarshi o'laroq, millatparvarlik harakati maydonga chiqdi. Natijada Chor Rossiyasi davrida Turkiy, Islomiy madaniyatni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan milliy harakat kun sayin kuchayib borayotgan, chetdan kelayotgan madaniyat ta'siriga qarshilik ko'rsatishni maqsad qilib qo'ygan harakatga aylandi. Turkistondagi jadidchilik harakati chor Rossiyasi hukmronligi yoki madaniyatini qabul qilish uchun emas balki, bosqinchilarga qarshi kurashda milliy ruhni yangilash, mamlakatni zamonaviylashtirish va G'arb mamlakatlaridagi kabi jamiyat barpo etish, millatni saqlab qolish uchun yuzaga kelgan milliy millat ziylolarining urinishi edi . Shu ma'noda jadidchilikni ma'rifatparvarlik ta'limotiga asoslangan harakat deb atash

mumkin. Shuni alohida ta'kidlash joizki, jadidchilik harakati ma'rifatparvarlik ta'limoti orqali Turkiston xalqlarining milliy ozodlikka erishishiga xizmat qilgan. Garchi bu amaliy jihatdan to'liq amalga oshmagan esada, biroq bu ma'rifatparvarlik harakati sifatida, xalqlar o'rtasida milliy integratsiyalashuvga sabab bo'lgan. Jadidchilik harakati Sharq mamlakatlarida keng tarqalgan islomparastlik va turkparastlik harakatlaridan mohiyatan farq qiladi. Islomparastlik va turkparastlik harakatlari maqsad nuqtai nazaridan umumiylislon dunyosi yoki turk dunyosi birligi g'oyasini ilgari surgan, o'z tabiatida osiyotsentrizm g'oyasini ifodalar edi. Jadid ideologiyasi taraqqiyot va ma'rifatparvarlik yo'lini aynan milliy identifikatsiya orqali, umuminsoniy taraqqiyotga milliy nuqtai nazaridan rivojlanish orqali erishishni tashviqot qilgani uchun ham boshqa ta'limotlarga nisbatan taraqqiyparvar edi. Bu harakat zamirida milliy identifikatsiyaning barcha mexanizmlari mavjud bo'lib, faqatgina bu identifikatsiya millatlarni bir-biridan ajratishga, milliy munosabatlarni chigallashtirishga emas, balki millatlararo munosabatlarni (Turkiston xalqlarini)ma'rifatparvarlik orqali yaxshilashga, yaqinlashtirishga hamda shu orqali Turkiston xalqlarini milliy o'zligini anglashiga asoslangan edi.

Shunga asosan aytish mumkinki, Markaziy Osiyo xalqlarida milliy integratsiyalashuvni yuzaga kelishida jadidchilik harakati ma'rifiy omillardan biri sifatida muhim rol o'yagan. Chunki bu harakatning faqatgina Turkiston xalqlariga emas balki, butun Sharq dunyosida qo'zg'alayotgan demokratik jarayonning bir qismi deb baholash mumkin.

O'z davri nuqtai nazaridan qaraydigan bo'lsak, ma'rifatparvarlik g'oyasi kishilik jamiyatiga o'z-o'zidan tasodifiy kirib kelgan emas. Bu XVII-XVIII asr G'arb davlatlaridagi milliy ozodlik harakatlari bo'ladimi, XIX-XX asrlardagi Sharq milliy ozodlik harakatlarimi yoki frantsuz ma'rifatparvarlik g'oyalarimi bu g'oyaga juda mashaqqatli inqilobiy harakatlar, qo'zg'olonlar milliy va irqiy kamsitilishlar orqali yetib kelganlar. Paradoksal holat shundan iboratki, hudud, mintaqa, jamiyat, davlatdan qat'iy nazar millat sifatida o'zlikni anglash shakllanishing kulxminatsion nuqtasida ma'rifat istiqbol hamda, taraqqiyotning birdan-bir umidvor yo'li sifatida tanlanadi. Bunga dunyoda mustamlakachilikni ko'plab boshidan kechirgan xalqlarning ijtimoiy-siyosiy hayotida ro'y bergan milliy harakatlarni keltirish mumkin. Xususan XVIII asrdagi Frantsuz milliy demokratik harakatlari, Germaniya va Italiya ozodlik harakatlari XIX asr Eron, Afg'onistondagi XX asr boshlarida Turkiyada avj olgan harakatlar, hamda Markaziy Osiyodagi jadid milliy islohotchilik harakatlari dastlab stixiyali xalq qo'zg'olonlari, ko'tarilishlar bilan boshlanib, jiddiy o'zgarishlarga olib kelgan bo'lsa, vaqt o'tishi bilan bu o'zgarishlar ma'rifat va millatparvarlik yo'nalishlaridagi milliy g'oyalar tashviqotiga yo'l ochdi.

Garchand xalqlar qadriyatlari, an'analari, urf-odatlari, dini va boshqalar orqali farqlansalarda o'z orzu-maqсадлари va intilishlarida o'ziga xos bo'lgan birdamlik asosida milliy harakatlarni aks ettiradi. Bu o'ziga xos bo'lgan milliy harakatlar fan, madaniyat va din orqali boshqa millatlar bilan aynanlashadi hamda bir yoki bir necha elat va millatlardan iborat bo'lgan milliylik ko'rinishini kasb etadi.

XULOSA

Yuqorida bildirilgan fikr va mulohazalardan quyidagi xulosalarga kelish mumkin: Milliy identifikatsiya jarayoni milliylikni saqlab qolishda, milliy o'zlikni anglashda, millatparvarlikni kuchayishida umuman millatni o'zini millat sifatida to'la anglab yetishida muhim ahamiyat kasb etadi. O'z o'rnida bu jarayon bevosita milliy ongi shakllanishi va rivojlanishiga ham xizmat qilib, jamiyat ijtimoiy-ma'naviy hayotini yangilanishida muhim o'rinn tutadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Choriyev A. Inson falsafasi. 2 tomlik. Mustaqil shaxs. /Monograflya. T., Chinor ENK, 2002.
2. Madaeva Sh.O. Milliy mentalitet va demokratik tafakkur. —Toshkent. 2009
3. Estetik tarbiya asoslari. —Toshkent: o'qituvchi, 2001
4. G'aybullayev O. Shaxs ma'naviy kamoloti va estetik madaniyat /Monograflya. T., Chashma print, 2008
5. Uralov, D., & Shodmonova, L. (2024). IBN SINONING INSON VA MA'NAVIY KAMOLOT MASALASIGA MUNOSABATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 4(26), 334-338.
6. Uralov, D. (2024). JAMIYAT XAVFSIZLIGI VA BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA SOG 'LOM MAFKURALARNING ROLI: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR. *International scientific journal of Biruni*, 3(1), 222-228.
7. Uralov, D. (2021). TALABA-YOSHLAR ONGIDA MA'NAVIY BO'SHLIQNI TO 'LDIRISHDA MAFKURAVIY IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISHNING AHAMIYATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(9), 962-966.
8. Reich Ch. A . The Greening o f Amerika. N.Y., 1970.